



2-TOM, 6-SON

**TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR PSIXOLOGIYASI VA UALAR BILAN
INDIVIDUAL VA GURUHIY KORREKSION ISHLAR.**

Qodirova Gulshoda To'lqin qizi

Toshkent viloyati chirchiq shahar 7- maktab psixologи

Bozorova Nilufar Najmuddinovna

Toshkent viloyati chirchiq shahar 24- maktab psixologи

Annotatsiya.

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun, eng avvalo, ularning oilasi, do'stlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi yoshlарimiz orasida ham tarbiyasi og'ir va noqobil farzandlar mavjud bo'lib, ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar bilan ishslash azaldan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada shu masalaga to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Maktab jamoasi,qiziqarli ish, oilaviy sharoit, nazoratga olinish, tarbiyasi og'ir bolalar,korreksin mashg'ulotlar, Fil mashqi, muammoni yechish, vaqtini tog'ri taqsimlash.

KIRISH.

Jamiyatimizda yoshlар tarbiyasida ayrim bo'shliqlar vujudga kelayotganini dunyoqarashi past, bilimi zaif, yosh bo'lsada, jinoyatga qo'l urgan, giyohvandlikga moyil, ichkilik va chekishga ruju qo'ygan, o'qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og'ir bolalarning borligi tashvishli holdir. Bolaning maktab vaqtida shakllanishida o'qituvchi, mutaxassis pedagog xodimlar, ya'ni sinf rahbarlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining roli kattadir. Ta'lim muassasasida tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan ishlar tartibi:

Tarbiyasi og'ir bolalar va noqobil oila farzandlari uchun alohida kuzatuv ishlarini olib borish;

Tarbiyasi og'ir bolaning yashash joyida ham nazoratga olinishini ta'minlash;

Voyaga yetmagan oquvchilarning ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishini doimiy nazorat qilib borish;

Mahallada hamda maktabda tarbiyasi og'ir bolaning qiziqarli ish bilan shug'ullanishini ta'minlash.

Maktab psixologi bilan hamkorlikda tarbiyasi og'ir o'quvchilarning psixik holatlarini kuzatib borish.



2-TOM, 6-SON

Ma'lumki, tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, u inson dunyoga kelishidan to umrining oxirigacha davom etadi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqe – hodisalar shaxsga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin va bu uning shaxsiy fazilatlarining shakllanish darajasini belgilab beradi. Bu esa ta'lrim sohasi oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoning yuzaga kelishi sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug'ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan u qanday ijtimoiy muhitda tug'ilib voyaga yetib, ulg'ayotganligiga e'tibor qaratish lozim. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, oxirgi paytlarda "tarbiyasi og'ir" bolalar bilan bog'liq muammolarning tez-tez uchrab turishi va ular soning keskin oshganligi tasdiqlanmoqda. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni hozirgi vaqtda axborot oqimining yuqoriligi (uzluksiz televizor ko'rish, kompyuterda xar hil o'yinlar o'ynash, internet tizimidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirish) yoki kattalarning e'tibori, oiladagi iqtisod va hokazolar. Amerikalik amaliyotchi pedagoglar tomonidan pedagogik xizmat doirasida bola tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olishda eng avvalo bolaga ta'sir ko'rsatish lozimligini ta'kidlashgan. Buning uchun bolaning o'zini o'zgartirishga tayyorlash , ya'ni: tashqi muhit ta'siridan sarosimaga tushmaslik; turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatish lozim. Olimlarning fikricha bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetkazish orqali tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin. Shunday ekan, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahmiyatga ega. Kuzatishlarimizdan bilamizki, oilaning to'liq yoki noto'liqligi ham bolalar va o'smirlar nazoratsizligining kelib chiqishiga u yoki bu ko'rinishda ta'sir qiladi. Shu boisdan oilada otaonalarning birgalikda ahil, inoq yashashligi bolalar va o'smirlar xulqidagi og'ishlarning oldini olishda muhim hisoblanadi. Oilada nizoli vaziyatlar ko'plab uchrab turadigan nosog'lom oilada o'sayotgan o'smir uchun ham ota-onas mehri turli xil oilaviy urush janjallardan, muammolardanustun turadi. Demak, bolalar xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil bu ota-onas, oila a'zolari va maktab jamoasi ta'siridir. Ta'lrim tizimida tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan olib boriladigan tuzatish ishlar: maktab ichki nazoratiga olish va ular bilan davra suhbatlari tashkil etish; o'quvchilarni qiziqishlariga qarab to'garaklarga jalb etish; o'quvchilarning oilaviy sharoitini o'rganish; ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish; maktablarining alohida ichki nazoratiga olingan o'quvchilar bilan tushuntirish ishlarini olib borish; o'quvchilarning ushbu ro'yhatga olingaligini o'ziga va tengdoshlariga oshkor qilmagan holda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish va ularga nazoratchi-pedagoglarga biriktirish; Muhim masalani hal etishda guruh rahbari quyidagi



2-TOM, 6-SON

vazifalarni majmuali hal qilish lozim: O'smir shaxsini shakllantirishda uning atrof muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o'smirda muayyan narsalarga nisbatan munosabat shakllangan bo'ladi. O'smir xulq atvorini baholashda (rag'batlantirish yoki jazolashda) kattalarning qat'iyatliligi, prinsipialligi sinchkov o'quvchi tomonidan tahlil qilinadi. Shuning uchun rag'batlantirish va jazolash usullari oqilona, o'z vaqtida qo'llanilishi kerak. Psixologik adabiyotlarda mehnat bilan jazolash o'smir psixologiyasida keskin o'zgarish yasashi ifodalangan. Ma'lumki, hamma o'quvchilarga mehnatning qahramonlik, yaratuvchilik ekanligi uqtirib, kelinadi. Favqulodda mehnatdan jazo sifatida foydalanish ularga mutlaqo yomon ta'sir ko'rsatadi. "Tarbiyasi og'ir" degan ibora o'ta salbiy ma'noni bildirmaydi. U yomon buzilgan, ishonchsiz bola emas. "Tarbiyasi og'ir" bolaga alohida munosabat, e'tibor va individual yondashuv zarur. Har qanday kasalni vaqtida davolagan maqul. E'tiborsiz qoldirilgan mayda-chuyda narsadan katta baxtsizlikka duchor bo'lish ehtimoli tug'iladi. Bolani "tarbiyasi og'ir" holatga olib boruvchi yagona sabab yo'q. Shuningdek ularni axloqsizlik illatlaridan sog'aytirib, mo'minqobil qilib qo'yadigan yagona shifobaxsh vosita ham yo'q. Lekin shunisi ham aniq-ki, jamoatchilik nazoratining bo'shlig'i tufayli og'irlashgan noqulay shart-sharoitlar, tarbiya ishlarida yuzakilikka yo'l qo'yish o'smir hayotida salbiy oqibatlarga olib keladi. Tarbiya inson uchun kurash demakdir. Bolaning qanday bo'lishi – bu shaxsiy ish bo'lmay, balki jamoatchilikni qiziqtirgan muammodir bolani tarbiyalaganda, u qilgan gunohining mohiyatini yaxshi anglamasligi oqibatida nima bilan tugashini hali tasavvur qila bilmasligini hisobga olish ham muhim. U chinakam mard yigit bilan do'st, chin o'rtoq qilishni orzu qiladi. Yanglishib yoki adashib yomonlar ta'siriga tushib qolganda esa unga darhol tog'ri yo'l ko'rsatilsa, har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida o'quvchilar bilan olib boorish mumkin bo'lgan mashqlar.

"Fil hikoyasi".

Bir fil qishloqqa kelib qolibdi. Bir-birini yetaklashib kelayotgan olti nafar ko'rlar filga duch kelishibdi. Ular bunday hayvonni ilk bor uchratishlari ekan. Birinchi ko'r odam filning yoniga kelib: «Fil katta devorga o'xshaydi», debdi. Boshqasi filning dumini ushlab "fil arqonga o'xshaydi" debdi. Uchinchi ko'r odam filning oyog'iga urilib: «Ilkalangiz ham adashyapsizlar. Fil katta daraxt tanasiga o'xshaydi debdi. To'rtinchisi filning qulog'ini paypaslab debdi: "Fil yelpig'ichga o'xshar ekan". Beshinchi ko'r odam fil tishiga urilib: - Senlar nima deyabsanlar o'zi! Fil nayzaga o'xshaydi' debdi. Yo'q, - debdi oltinchi ko'r, filning xartumini ushlab: - Fil ilonga o'xshaydi! Ular filning nimaga o'xhashligi haqida tortishib, hali hamon yo'l ustida o'tirishgan deyishadi. Ular fil haqida qisman taassurotga





2-TOM, 6-SON

ega bo‘lishgan edi, xolos. Agar ular barchasini umumlashtira olganlarida haqiqatga yaqin kelishgan bo‘lardi..

•Ushbu hikoya fikr almashish, nizolarni hal qilish, empatiya va bugungi mavzu, ya’ni muammolarni hal qilish singari asosiy hayotiy ko‘nikmalar kursida ishtirokchilar o‘rgangan ko‘nikmalariga qanday bog‘liqligi haqida munozara olib boring. Quyidagi savollarning barchasini yoki bir nechtasini so‘rang:

-Ushbu hikoyadan qanday hulosa chiqardingiz?

-Shu hikoya kabi vaziyatga o‘z hayotingizda duch kelganmisiz - vaziyat barchaga turlicha ko‘rinadi?

-Qay tarzda turli xil nuqtai nazarlar qaror qabul qilishni yoki muammoni hal qilishni osonlashtiradi yoki natijada yaxshiroq echim topishga ko‘mak beradi?

Ular doskada fil voqeasi asosida misollar keltirib, u yerdagi muammo va uning yechimini keltirib berishdi

Xulosa qiling: har birimizning o‘z o‘tmishimiz, o‘z nuqtai nazаримиз bor. Agar biz birgalikda ishlasak, yashasak va o‘ynasak, biz bir-birimizning nuqtai nazаримизни hurmat qilish yo‘llarini izlashimiz lozim. Shuningdek, biz bir-birimizdan o‘rganishimiz va imkoniyatlar haqida ko‘proq tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin (masalan, ko‘r odamlar singari boshqalarning nfikrini hisobga olsak).

Bu hikoya metaforadir. Shu bilan birga, yagona yechim bo‘lmay, barcha muammoga ko‘plab yechimlar topish mumkinligini ta’kidlang

“Real hayotiy muammolar”.

O‘zingiz aniqlagan muammoni hal qilish va tahlil qilish uchun guruhingiz bilan (yoki sheriklaringiz bilan) ishlang. Ish daftaridan qo‘llanma sifatida foydalaning va fikrlaringizni baham ko‘rishga tayyor bo‘ling. Shuni yodda tutingki, turli xil javoblar «to‘g‘ri» sanalib, bu vaziyatda ko‘plab natijalar bo‘lishi mumkin. Guruhlardan o‘z hulosalarini topshrishlarini so‘rayman.

•Ishtirokchilarga 5 daqiqa vaqt bering, so‘ng har bir guruhdan hisobot berishlarini so‘rang. Ayting:” Hozirgacha qanday xulosaga kelganingizni eshitaylik. Dastlab har bir guruh muammoni hal qilganliklari to‘g‘risida hisobot berishlarini istardim”.

•Muammoni hal qilish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshiring va har bir guruhni o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashishga chaqiring. Ehtimol, bu ba’zi bir qiziqarli fikrlarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki guruhlar muammoga boshqa burchakdan qarashlari yoki turli xil variantlarni tanlash ustidan o‘ylashlari mumkin.

XULOSA



2-TOM, 6-SON

Bola tarbiyasida birinchi galda oilaviy tarbiyani, ya'ni oiladagi sog'lom munosabatni qaror toptirish "oila-maktab" hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish, bolani balog'at yoshiga xos xususiyatlarini to'g'ri anglagan holda, tarbiya jarayoniga maqsadli yondashish, ko'plab salbiy omillarni kelib chiqishining oldini oladi. Ma'lumki, oilaning ijtimoiy-psixologik sog'lomligi iqtisodiy omillar bilan ham bog'liq. Oilada ota-onaning egallagan kasbhunari, jamiyat hayotining rivojiga qo'shayotgan hissalari, ularning kasbiy faol harakat qilishlari kabilar oila byudjetiga o'z ta'sirini ko'rsatishi barobarida, farzandlar tarbiyasida ham o'z aksini topadi. Oiladagi o'zaro hurmat, hissiy bir-biriga intilib yashash, oilaviy yakdillik, oilani barqaror bo'lish omilidir. Maktab sharoitida o'qituvchi-ustozlarning shirin so'zi, bolaga nisbatan kamtarona muomalasi, hamisha bolani o'ziga yaqin olib, o'z vaqtida to'g'ri maslahatlar berib borishlari, bola qalbiga yo'l topish omili hisoblanadi. Shunday ekan, o'quvchilar orasida, ya'ni turli xarakterli bolalarning har biriga yakka tartibdag'i yondashuvlar asosida ularning xattiharakatlarida kuzatilayotgan nojo'ya holatlarning oldini olish mumkin. Bolani anglash, uning qalbiga yo'l topish, dunyoni anglash bilan barobardir. O'zicha bir olam bo'lgan bola ham o'z navbatida ota-onasi, o'ziga yaqinlari hamda ustozlarini anglashda o'z- o'zini tarbiyalash orqali tegishli xulosalar chiqarib oladi. O'z-o'zini tarbiyalash orqali bolada nojo'ya qiliqlar qilish o'rniga o'ylab fikr yuritadigan, kirishimli, lozim paytda boshqalarga yordam qo'lini cho'zadigan, kelgusida biron kasbhunar egasi bo'lib, jamiyat rivojiga hissa qo'shish haqida orzu qiladigan darajada faoliyat yuritadi. Ma'lumki, sho'x bola bilan nojo'ya harakatlar qiluvchi bolalar o'rtasida farq bo'ladi. Sho'x bolalarning xatti-harakatlari ko'proq zararsiz, ba'zan kutilmaganda yuzaga chiquvchi, ba'zan biron tashabbusni ko'zlab uni bajarishga kirishish bilan bog'lanib ketadi. Maktablarimizda qiyin bolalar muammosi bor, avval ham bo'lgan va doim ham bo'ladi. Xo'sh uning mohiyati nimada? Sabablari nimalardan iborat? Bir tarbiyasi og'ir o'quvchi boshqasidan nimasi bilan farq qiladi? Tarbiyasi qiyinlikni yengib o'tishda ta'sir ko'rsatish yo'llari nimalardan iborat? O'qtuvchining tarbiyachilar, sinf rahbarlari va maktab direktorlarining o'rinnbosarlari seminarida: "Kimni, qanday belgilariga qarab tarbiyasi og'iro'quvchi deb hisoblaysiz?"- degan savolga 500 ga yaqin tarbiya qilish qiyin bo'lgan belgi ko'rsatib o'tildi. Pedagoglar tomonidan tez-tez qo'llaniladigan ba'zi belgilarnigina qayd etamiz: o'quvchi mifik kun tartibiga bo'ysunmaydi, o'qishga yomon munosabatda, qo'pollik qiladi, mushtlashadi, darslarda e'tiborsiz, tengdoshlarini xafa qiladi, hech narsa o'qimaydi, ko'p kuladi, dangasa, so'kinadi, qizlarga tegajoglik qiladi va xokazo. Pedagoglarning tan olishiga qaraganda bemavrid ovqatlanish, uplash, bekorchilik, sayr qilish, ko'chada sandiroqlab yurish, shiyponchada o'tirish, urishish, kishining g'ashini keltiradigan kiyimlar kiyish, qiliqlar qilish, pardoz-andoz qilish ularning sevimli faoliyat



2-TOM, 6-SON

turlaridandir. Bu chetga chiqishlarning paydo bo'lishiga asos bor. Oilada ota yoki onaning yo'qligi, bolaning yolg'iz ota yoki yolg'iz onaning tarbiyalashi, tashqi o'quv tarbiya muasassalari ta'siri yo'qligi (bola bo'sh vaqtida biron bir faoliyat bilan shug'ullanmaydi) bunday sabablardan hisoblanadi. O'quvchi-yoshlar o'rtasida axloqiy me'yorlarga mos xulq-atvorni shakllantirishda ta'lif muassasasi, oila va mahalla o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Insonning birinchi ustozি onasidir. Islomda "mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqlidir, degan savolga uch marotaba "Onang" deyilgandan keyingina to'rtinchi marta "Otang" deb javob berilgan. Oiladagi tarbiya muhiti bolaning individualligi uning o'qishidan tashqaridagi faoliyatlarida kitobxonlik, tabiatga, dinga va boshqalarda aniq ko'rindi. Aziz ustozlar va ota-onalar farzandingizga psixologik muammolarni bartaraf etishda, ulg'ayish azobining oson kechishini istasangiz quyidagilarga ahamiyat bering: "Go'zal sifat va husni xulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko'rkm qilmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig' bo'lmas!"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Doston Xolmatov "Hikoyalarda davr va qahramon masalasi" maqola. SCIENTIFIC PROGRESS Farg'onadavlat universiteti
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T., "Ma'naviyat", 2000. -112 bet
3. B. Shukurova "Yangi davr hikoyachiligining o,ziga xos xususiyatlari" "O'zbekistonda ilmiy- amaliy tadqiqotlar" Respublika ilmiy konferensiyasi
4. Rasulova Xilola Sardor qizi "Tarbiyasi og'ir o'quvchilar" INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
5. Komilova N.G'. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma.
6. Tadjiyeva S.N. Sabirova.A.D. "Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish" Kurs o'tkazish uchun xrestomatiya.

